

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
34 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	



XORIJIY DAVLATLAR SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMI

Karabayev Sanjar Abdusamatovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi, PhD Dotsent.
Elektron pochta: dalershah@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlanayotgan davlatlarda sog'liqni saqlash sohasida davlat–xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Unga ko'ra, loyihalarni davlat–xususiy sheriklik asosida amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Sog'liqni saqlash sohasida investitsiya loyihasini davlat–xususiy sheriklik asosida amalga oshirish bosqichlari ko'rib chiqilgan. Tahlil natijalari asosida ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, investitsiya loyixalari, risklar, xususiy sektor, moliyalashtirish, metodologiya.

Abstract: The article examines the specifics of financing investment projects in the healthcare system of developing countries based on public-private partnerships. The features of implementing projects based on public-private partnership are analyzed. The stages of implementation of the investment project in the healthcare sector based on public-private partnership and the methodology of risk distribution in projects based on public-private partnership are considered.

Keywords: Public-private partnership, investment projects, risks, private sector, financing, methodology.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности финансирования инвестиционных проектов в системе здравоохранения развивающихся стран на основе государственно-частного партнерства. Проанализированы особенности реализации проектов на основе государственно-частного партнерства. Рассмотрены этапы реализации инвестиционного проекта в сфере здравоохранения на основе государственно-частного партнерства.

Ключевые слова: Государственно-частное партнерство, инвестиционные проекты, риски, частный сектор, финансирование, методология.

KIRISH

Bugungi kunda aholi sonining ortishi, demografik o'zgarishlar, yangi tibbiy texnologiyalarga bo'lgan talabning o'sishi hamda sog'liqni saqlash xizmatlarini keng qamrovda taqdim etish zarurati sohaga bo'lgan investitsiyalarni sezilarli darajada oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu masala yanada dolzarb bo'lib, mavjud budjet resurslarining cheklanganligi sohaga yetarli miqdorda sarmoya jalb etishda jiddiy to'siqlar tug'dirmoqda.

Aynan shunday sharoitda davlat–xususiy sheriklik mexanizmlari sog'liqni saqlash tizimidagi infratuzilma-viy va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda muhim strategik yechim sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat–xususiy sheriklik vositasida davlat xususiy sektor bilan hamkorlikda tibbiy muassasalar qurilishi, yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlanishi va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlarda katta miqdordagi investitsiyalarni jalb etishi mumkin. Bu, bir tomondan, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratsa, ikkinchi tomondan, davlatning moliyaviy yukini yengillashtiradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat–xususiy sheriklik (PPP) asosida moliyalash mexanizmlari so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlarda chuqur o'rganilmoqda. Oktavianus va hamkorlari olib borgan izlanishlarda ijtimoiy infratuzilma, jumladan sog'liqni saqlash sohasida PPP modellari-ning jadal kirib borayotgani, ularning inson kapitali rivojiga va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga sezilarli hissa qo'shishi ta'kidlangan. Shu bilan birga, Jensen sog'liq sohasida yetuk PPP loyihalarida xizmat yetkazib berish, sog'liq xodimlari tayyorlash, tibbiy texnika va laboratoriya infratuzilmasini rivojlantirish kabi to'rtta asosiy yo'nalishni ajratgan bo'lib, ular dorilarga kirish imkoniyatini kengaytirish va diagnostika sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Kanadadagi Royal Ottawa va Brampton Civic shifoxonalari DBFM (Design–Build–Finance–Maintain) modeli asosida amalga oshirilgan yirik PPP loyihalarini sifatida e'tiborga loyiq. Dastlab bu loyihalar "yaxshi qiymat" namunasi sifatida taqdim etilgan bo'lsa-da, keyinchalik qiymat va hisob-kitob masalalari, shuningdek shaffoflik va mas'uliyat bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgan. Rodrigues va hamkorlari olib borgan tizimli tahlilda Osiyo va Afrika davlatlaridagi shifoxona PPP modellarida risklarni boshqarish, moliyalashtirish mexanizmi va sifatni nazorat qilish masalalari asosiy muammolar qatorida tilga olingan.

Afrikadagi Malavi misolida Salangwa sog'liq xizmatlari sifatini oshirish, samaradorlik va tenglik tamoyillarini ta'minlash bo'yicha PPP yondashuvlarini o'rgangan. Ferreira va hamkorlari esa sog'liq sektorida PPP muvaffaqiyati uchun stewardship, muvofiqlashtirish, regulatsiya va rag'batlantirish tizimlarining ahamiyatini ta'kidlab, to'qqizta asosiy omilni aniqlagan. Aslantas va hamkorlari Bayesian Belief Network usulidan foydalanib, shifoxona PPP loyihalarining moliyaviy, tuzilmaviy va foyda-zarar risklarini oldindan baholash bo'yicha ilg'or metodologiyani ishlab chiqqan.

Tabrizi va hamkorlari birlamchi sog'liqni saqlash darajasidagi PPP tajribalari bo'yicha skoping sharh berib, xizmat sifatini oshirish, iqtisodiy natijadorlik va xizmatlarga kirish imkoniyatlarini yaxshilashda ularning samaradorligini qayd etgan. Eronning Shiraz shahrida Sadeghi va hamkorlari so'rov asosida olib borgan tadqiqotlarida jamoatchilik va xususiy sektor nuqtayi nazaridan PPP modellarini amalga oshirish uchun yetarli salohiyat mavjudligini ko'rsatgan. Mbaka va Mwange Janubiy Afrika mamlakatlaridagi PPP loyihalarini tanqidiy baholab, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka olib keluvchi omillar sifatida tashkiliy zaifliklar, moliyaviy barqarorlik masalalari va manfaatlar ziddiyatini alohida qayd etgan.

Umuman olganda, sog'liqni saqlash sohasidagi PPP loyihalarini xalqaro miqyosda o'zining samarali jihatlari namoyish qilmoqda. Biroq ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun modellarni mamlakat kontekstiga mos tanlash, risklarni aniq boshqarish, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini mustahkamlash, shuningdek rag'batlantirish tizimlarini takomillashtirish zarur. Shu yondashuv sog'liqni saqlash tizimida barqaror va sifatli infratuzilmani yaratishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro ilmiy maqolalar, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Jahon banki hisobotlari, shuningdek, xorijiy davlatlarning sog'liqni saqlash bo'yicha rasmiy statistika bazalaridan olindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, kontent tahlili va statistik usullar yordamida qayta ishlanib, davlat–xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlanayotgan davlatlarda davlat–xususiy sheriklikning sog'liqni saqlash sohasida qo'llanilishi hali ham dastlabki bosqichda bo'lib, bu yo'nalishda tegishli huquqiy baza, moliyaviy mexanizmlar va institutsional salohiyat yetarlicha shakllanmagan. Shu sababli, ushbu davlatlar uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish, uning ijobiy jihatlari milliy sharoitlarga moslashtirgan holda tatbiq etish katta ahamiyat kasb etadi. Sog'liqni saqlash sohasini davlat–xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish nafaqat sohaga sarmoya jalb etishning muqobil manbai, balki uning barqaror rivojlanishi uchun strategik vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Davlat–xususiy sheriklikning sog'liqni saqlash tizimida asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat. Budget mablag'lari ko'p hollarda yetarli bo'lmaydi, ammo ushbu mexanizm orqali xususiy sektorning moliyaviy resurslarini jalb qilish imkoniyati tufayli yangi shifoxonalar qurilishi, zamonaviy uskunalar xarid qilinishi va tibbiy xizmatlar qamrovi kengaytiriladi. Bunday sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalar infratuzilmani qisqa muddatlarda yangilash va modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Xususiy sheriklarning qurilish, jihozlash va boshqaruvdagi innovatsion yechimlari tibbiy muassasalar samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, xususiy sektorning raqobatbardosh va mijozlar manfaatini ustuvor qo'yuvchi faoliyati tibbiy xizmatlar sifatini oshiradi. Bu aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordamning samaradorligi va ishonchlilikini ta'min-


laydi. Davlatning faqat kafolatlar va subsidiyalar orqali ishtirok etishi budjet xarajatlarini kamaytiradi hamda mablag'larni boshqa ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. Yangi shifoxonalar va sog'liqni saqlash markazlarining tashkil etilishi soha mutaxassislari uchun yangi ish o'rinlari yaratadi, kadrlar malakasini oshiradi va mamlakatning inson kapitali rivojiga hissa qo'shadi.

Ko'p yillik shartnomalar asosida tuziladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari uzoq muddatli barqarorlik va sifatni ta'minlashga xizmat qiladi. Xizmatlar geografiyasining kengayishi natijasida chekka va kam ta'minlangan hududlar ham sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'ladi, bu esa ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi.

Xitoy tajribasi. So'nggi o'n yilliklarda Xitoy Xalq Respublikasi davlat-xususiy sheriklik modelini strategik iqtisodiy instrument sifatida faol qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Mamlakatning ulkan demografik salohiyati, jadal urbanizatsiya jarayonlari va infratuzilmaga bo'lgan katta talab davlat-xususiy sheriklikning rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi. Shu munosabat bilan Xitoyda investitsiya loyihalarini, jumladan, sog'liqni saqlash sohasini davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik asosida moliyalashtirish keng ko'lamda tatbiq etilmoqda.

Xitoy tajribasi jahon hamjamiyati e'tiborini tortgan holda, davlat-xususiy sheriklik orqali tezkor iqtisodiy o'sishga erishish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholiga samarali ijtimoiy xizmatlar taqdim etishda o'ziga xos modelni shakllantirdi. Xususan, mamlakatdagi "PPP framework" (davlat-xususiy sheriklik doirasi-dagi huquqiy va tashkiliy baza) davlat tomonidan kuchli tartibga solingan, xususiy sektor uchun esa qulay investitsion muhit yaratilgan. Bu, o'z navbatida, Xitoy Osiyo mintaqasidagi eng faol va muvaffaqiyatli davlat-xususiy sheriklik amaliyotiga ega davlatlardan biriga aylantirdi.

Sog'liqni saqlash sohasida Xitoy 2014-yildan boshlab davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etib, xususiy klinikalar, tibbiyot markazlari va qishloq tibbiyoti infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qator yirik loyihalarni amalga oshirdi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun to'lov mexanizmlarining asosiy uch turi keng qo'llaniladi. Ushbu mexanizmlar loyiha bo'yicha asosiy sherik — xususiy investorning daromad olish usullarini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. Xitoyda davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun to'lov mexanizmi turlari¹

So'nggi o'n yillikda Xitoy Xalq Respublikasida davlat-xususiy sheriklik asosida 300 dan ortiq tibbiy infratuzilma loyihasi amalga oshirilgan. Bu loyihalar asosan quyidagi yo'nalishlarda jamlangan: yangi kasalxonalar qurilishi va rekonstruksiya, mamlakat miqyosida diagnostika markazlarini tashkil etish, tibbiy IT tizimlar va telemeditsina platformalarini joriy etish, tez tibbiy yordam va profilaktika markazlarini tashkil etish. Davlat-xususiy sheriklik modeli, ayniqsa, ikkinchi va uchinchi darajali kasalxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular yuqori sifatli xizmat ko'rsatishga talab yuqori bo'lgan hududlarda joylashgan va katta sarmoya talab etadi.

1 Muallif ishlanmasi. Manba: <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/cn/pdf/en/2017/08/tax-impacts-of-ppp-in-china.pdf>



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu davlatlarda davlat–xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish va boshqarishda ularning yaxlit hayotiy sikli mavjud. Ushbu jarayon loyihaga nisbatan yirik olti bosqichni o'z ichiga oladi (2-rasm).

•ТАШКИЛ ЭТИШбосқичи:

Давлатва хусусий шерий лойиҳани амалга ошириш учун восита ёки инвестиция усулини ташлаш босқичи. Бу босқичда "акциядорлик" инвестициялари (масалан, BOT ёки TOT моделлари бўйича) ёки субпудрат шартномасини тузиш (масалан, O&M ёки MC моделлари бўйича) орқали амалга оширилиши ва бошқарилиши мумкин.

•МОЛИЯЛАШТИРИШбосқичи:

Қўпинча ташқаридан тақдим этиладиган молиялаштириш талаб қилиниши мумкин бўлган босқич бўлиб, анъанавий банк кредитлари ёки ҳатто баъзи активларни сотиш, уларни қайтариб бериш бўйича келишувлар шаклида амалга оширилади.

•ЛОЙИҲАЛАРНИ "ДИЗАЙНЛАРИ"НИ ИШЛАБ ЧИҚИШ босқичи:

Лойиҳани амалга оширишдан олдинги тадқиқотлар ва дизайнлари ишлаб чиқилади. Масалан, операцион тузилма ва тартибларни лойиҳалаш, молиявий прогнозлар ва бошқалар.

•МАВЖУД ОБЪЕКТЛАРНИ ҚУРИШ /ТОПШИРИШ босқичи:

Лойиҳани амалга ошириш учун объектлар сотиб олинган ёки қурилган босқичи. Қабул қилинган ДХШ моделидан келиб чиққан ҳолда, бу давлат ёки давлат корхоналаридан мавжуд объектларни қуриш ёки бериш шаклида амалга оширилиши мумкин.

•БОШҚАРУВбосқичи:

Хусусий шерик лойиҳа ёки активни келишилган муддат ичида даромад олиш учун ишлатса. Қабул қилинган ДХШ моделига мувофиқ, хусусий компания лойиҳани ўз кучида бошқариши ёки лойиҳани бошқаришда фақат субпудратчи сифатида ҳаракат қилиши мумкин.

•ЧИҚИШбосқичи:

Лойиҳанинг якуний босқичида ДХШ бўйича келишув тугайди ва хусусий шерик лойиҳадан чиқиб кетади.

2-рasm. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish va boshqarish bosqchilari²

Loyihalarning moliyalashtirilishi asosan quyidagi manbalar orqali amalga oshirildi:

davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash loyihalarning asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib, ko'plab loyihalar davlat grantlari orqali amalga oshirildi.

xususiy sektorning investitsiyalari loyihalarning moliyalashtirilishida muhim rol o'ynadi. Bu investitsiyalar orqali zamonaviy tibbiy uskunalar va texnologiyalar joriy qilindi.

Xitoyning xalqaro hamkorlari tomonidan ko'rsatilayotgan grantlar loyihalarning amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi (1-jadval).

**1-jadval:** Xitoyda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining umumiy ko'rsatkichlari³

Loyiha nomi va joyi	Loyiha turi	Qiymati (Yuan)	Xususiy sherik	Moliyalashtirish manbalari	Asosiy natijalar
Foshan 4th People's Hospital (Guandun)	BOT	1.2 mlrd	China Resources Healthcare	60% xususiy, 30% davlat, 10% jamg'arma	1000 o'rinli kasalxona, telemeditsina, 7.2% ROI
Chengdu Tianfu Int. Hospital (Sichuan)	DBFO	2.4 mlrd	Evergrande Health Group	70% xususiy, 20% bank krediti, 10% subsidiya	1200 o'rin, 2000 ish o'ri, Germaniya uskunolari
Ping An Good Doctor (Shanxay)	Digital Health PPP	500 mln	Ping An Insurance	80% xususiy, 20% davlat granti	1 mln foydalanuvchi/kun, raqamli xizmat
Wuhan Smart Health Platform (Xubey)	eHealth PPP	400 mln	Huawei	60% xususiy, 40% davlat	EMR, 3 mln foydalanuvchi, tez yordam vaqt qisqardi
Changsha Rehab Center (Xunan)	BOO	800 mln	Mindray Healthcare	75% xususiy, 25% davlat subsidiyasi	600 o'rin, psixologiya va reabilitatsiya markazi
Guangxi Biotech Park (Guansi)	Cluster PPP	~1.5 mlrd	Johnson & Johnson, Sinovac	50% xususiy, 30% kafolat, 20% ADB granti	Vaksina ishlab chiqarish, tibbiy turizm rivoji


Umuman olganda, 2021–2025-yillarda Xitoyda sog'liqni saqlash sohasida davlat–xususiy sheriklik modeli keng tarqaldi. Bu davrda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik orqali ko'plab zamonaviy tibbiy muassasalar qurildi, raqamli tibbiyot tizimlari joriy qilindi va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar aholiga taqdim etildi.

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreya davlat–xususiy sheriklik modelini muvaffaqiyatli va kompleks asosda joriy qilgan ilg'or mamlakatlardan biri sifatida alohida e'tiborga loyiq. Bu mamlakat so'nggi 20 yil ichida o'zining tibbiy infratuzilmasini tubdan isloh qildi va davlat hamda xususiy sektor hamkorligi orqali yuqori texnologik kasalxonalar, raqamli diagnostika markazlari, klinik tadqiqot institutlari, shuningdek, onkologiya, kardiologiya kabi mutaxassislashtirilgan tibbiyot markazlarini barpo etdi. Janubiy Koreya tajribasi o'ziga xos jihatlarga ega. Birinchidan, davlat–xususiy sheriklik nafaqat fizik infratuzilmani qurish, balki sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, masofaviy tibbiy xizmat ko'rsatish va aholining tibbiy savodxonligini oshirishga ham yo'naltirilgan. Ikkinchidan, davlat tomonidan berilayotgan huquqiy kafolatlar, moliyaviy imtiyozlar va nazorat mexanizmlari xususiy sektor uchun barqaror hamkorlik muhitini yarata oldi.

Buning natijasida Janubiy Koreya nafaqat o'z aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minladi, balki sog'liqni saqlash sohasida "eksportbop" innovatsiyalar ham yaratdi. Masalan, raqamli kasalxona tizimlari, elektron tibbiy ma'lumotlar bazalari (EHR), masofaviy diagnostika platformalari va tibbiy sun'iy intellekt (AI) tizimlari orqali mamlakat o'z sog'liqni saqlash modelini boshqa davlatlarga eksport qila boshladi. Shu jihatdan Janubiy Koreya tajribasini tahlil qilish O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'ta dolzarb hisoblanadi. Chunki u nafaqat moliyaviy, balki boshqaruv va texnologik jihatdan ham samarali yechimlar taklif qiladi. Mazkur qismda Janubiy Koreyada 2020-yildan keyin amalga oshirilgan eng muhim davlat–xususiy sheriklik loyihalarini, ularning moliyalashtirish manbalari, huquqiy asoslari va amaliy natijalari atroflicha tahlil qilinadi.

Janubiy Koreyada sog'liqni saqlash sohasida davlat–xususiy sheriklik (DXSH) loyihalarini moliyalashtirishda gibridd yondashuv davlat va xususiy sektor resurslarini samarali tarzda birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda moliyalashtirish bir vaqtning o'zida bir nechta manbalardan — davlat budjeti, xususiy sarmoya va hatto xalqaro moliya institutlari hissasidan amalga oshiriladi (3-rasm).

3 Muallif tadqiqotlari natijasida tuzilgan.



3-rasm. Janubiy Koreyada sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda gibridd yondashuv⁴

Gibridd yondashuv — bu davlat–xususiy sheriklik loyihasida moliyalashtirish manbalarining aralash modeli bo'lib, unda quyidagi muhim xususiyatlar namoyon bo'ladi:


davlat tomonidan bevosita yoki kafolatlangan moliyalashtirish (subsidiya, grant yoki daromad kafolati);

xususiy investorlar tomonidan kiritilayotgan sarmoya (qurilish, boshqaruv yoki xizmat ko'rsatish uchun);

boshqa manbalar (masalan, bank kreditlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jamoat obligatsiyalari) birgalikda ishtirok etadi.

Janubiy Koreya kabi taraqqiyot bosqichidan o'tgan mamlakatlarda ushbu model nafaqat investitsiya muhitini yaxshilash, balki aholiga tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu maqolada Janubiy Koreyada sog'liqni saqlash sohasida davlat–xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda qo'llanilayotgan gibridd yondashuvning mohiyati, amaliy qo'llanilishi va uning natijadorligi tahlil qilinadi.

Janubiy Koreyada sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan davlat–xususiy sheriklik loyihalari tajribasi shundan dalolat beradiki, gibridd yondashuv samarali moliyalashtirish mexanizmi sifatida nafaqat kapital resurslarini jalb etish, balki loyihalarning barqarorligi va sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham o'rnak bo'lishi mumkin, ayniqsa, tibbiy infratuzilma yetishmasligi va moliyaviy resurslar taqchilligi mavjud bo'lgan sharoitda. Davlat–xususiy sheriklik loyihasini gibridd moliyalashtirish asosida rivojlantirish milliy sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishning eng samarali instrumentlaridan biriga aylanishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Janubiy Koreyada gibridd davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish orqali raqamli tibbiyotga investitsiya kiritish ko'rsatkichlari, mln AQSH doll.⁵

4 Muallif ishlanmasi

5 <https://www.intralinkgroup.com/ko-KR/Latest/Blog/April-2022/South-Korea-big-opportunities-for-digital-health-f>

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020–2024-yillarda Janubiy Koreyada gibridd davlat–xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish orqali raqamli tibbiyotga investitsiya kiritish hajmi doimiy o'sib borgan. Xususan, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 780,0 mln AQSH dollaridan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, besh yildan so'ng moliyalashtirish hajmi bazis yilga nisbatan 46 foizdan ziyodga ortib, jami kiritilgan investitsiyalar hajmi ushbu yilda 1 mlrd 150 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Mamlakatda gibridd davlat–xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish orqali raqamli tibbiyotda xizmatlarni qabul qilish darajasi ham barqaror ekanligini, bu boradagi loyihalarning moliyaviy ko'rsatkichlari ham qoniqarli ekanligini ko'rish mumkin (2-jadval).

2-jadval: Raqamli tibbiyot xizmatlarining qabul qilish darajasi⁶

Xizmat turi	Katta tibbiy muassasalar (%)	Umumiy tibbiy muassasalar (%)	100 ta yoki undan kam yotqizish o'rniga ega bo'lgan muassasalar (%)
Elektron tibbiy yozuvlar tizimi (EMR)	100%	95.8%	90.5%
Suratlarni saqlash va almashish tizimi (PACS)	100%	97.4%	87.3%
Laboratoriya ma'lumotlari tizimi (LIS)	97.6%	76.5%	35.8%
Sog'liq ma'lumotlari almashinuvi (HIE)	78.6%	39.8%	18.7%
Mobil EMR tizimi	45.2%	21.9%	10.1%

Janubiy Koreyada tibbiy muassasalarda elektron tibbiy yozuvlar tizimi deyarli to'liq joriy etilgan. Bu raqamli sog'liqni saqlash infratuzilmasining yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Xususan, katta tibbiy muassasalarda EMR 100% joriy etilgan bo'lib, bu axborot almashinuvi, tashxis sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligi uchun muhim asosdir. Bu jadvallar turli tibbiy axborot tizimlarining joriy etilish darajasini ko'rsatadi. EMR va PACS kabi asosiy tizimlar keng joriy qilingan bo'lsa-da, HIE (Sog'liq ma'lumotlari almashinuvi) va mobil EMR tizimlari hali keng qamrovda emas. Bu ayniqsa kichik muassasalarda ko'proq kuzatiladi. Sabablardan biri — moliyaviy resurslarning cheklanganligi va texnik mutaxassislarning yetishmasligidir.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilganda, rivojlanayotgan davlatlarda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda davlat–xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish strategik yechim sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali davlat moliyaviy yukni qisman xususiy sektor bilan bo'lishish imkoniga ega bo'ladi, xususiy sarmoya esa infratuzilmani yangilash va xizmat sifatini oshirishga xizmat qiladi. Samarali tarzda tuzilgan davlat–xususiy sheriklik loyihalari orqali tibbiy muassasalarning qurilishi, jihozlanishi va boshqaruvi yanada tezkor va shaffof amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dedicated Public-Private Partnership Units: A Survey of Institutional and Governance Structures, OECD, 2010
2. Dmitrieva E.O., Guseva M.S. Centry razvitija gosudarstvenno-chastnogo partnerstva: analiz mezhdunarodnoj praktiki sozdaniya i razvitija // Internet-zhurnal «NAUKOVE DENIE» Tom 8, №6 (2016) <http://naukovedenie.ru/PDF/39EVN616.pdf>
3. Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. — М.: Дело, 2010. С.120.
4. Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве / Дынин Е. А. // Общество и экономика. — 2007. — № 5–6. С.111.
5. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/cn/pdf/en/2017/08/tax-impacts-of-ppp-in-china.pdf>
6. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/cn/pdf/en/2017/08/tax-impacts-of-ppp-in-china.pdf>

6 <https://www.intralinkgroup.com/ko-KR/Latest/Blog/April-2022/South-Korea-big-opportunities-for-digital-health-f>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100